

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**SINXRON VA KETMA-KET TARJIMA NAZARIYASI VA**  
**AMALIYOTI**  
**FANING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar  
Mutaxassislik: 70230202 – Sinxron tarjima (sharq tillari bo'yicha)

**Toshkent – 2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti  
instituti direktori:

\_\_\_\_\_  
(imzo)

X.V. Mirzaxmedova

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va  
xalqaro jurnalistika oliy maktabi boshlig'i:

\_\_\_\_\_  
(imzo)

S.T. Mustafayeva

ARM boshlig'i:

\_\_\_\_\_  
(imzo)

M. Yuldasheva

Fan/modul kodi SKKT1206		O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti	72	108	180	
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrantlarda sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyotining vujudga kelishi, rivojlanishi, sinxron tarjimani amalga oshirish tizimi, sinxron tarjima strategiyalari hamda ularning afzallik va kamchiliklari, sinxron tarjimonlarni tayyorlash borasidagi amaliy masalalar bilan tanishtirish hamda sohaviy atamashunoslik, asosiy o'rganilayotgan sharq tilidan grammatik, stilistik malakasi tarjima qilish bilan bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalari hamda sinxron va ketma-ket tarjima amaliyotini o'rgatish orqali bilim hamda ko'nikmani shakllantirishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>University of York (THE 148, QS 183)</b> xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi:  <a href="https://www.york.ac.uk/students/studying/manage/programmes/module-catalogue/module/LAN00117M/latest">https://www.york.ac.uk/students/studying/manage/programmes/module-catalogue/module/LAN00117M/latest</a></p>				
<p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. "Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanining mazmuni, predmeti va metodi</b></p> <p>"Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanining maqsadi. "Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanining vazifalari. "Sinxron tarjima nazariyasi" fanining predmeti. Sinxron tarjima haqida umumiy tushuncha. Sinxron tarjima sistemasi. Sinxron tarjimaning afzalliklari. Sinxron tarjimaning kamchiliklari.</p> <p><b>2-mavzu. Sinxron tarjima nazariyasining shakllanishi</b></p> <p>Sinxron tarjimaning rivojlanish tarixi. Sinxron tarjimadan foydalanish ko'lamining kengayishi va uning nazariy asoslari. Sinxron tarjimaning ilk bora qo'llanilish tarixi. Sinxron tarjimadan foydalanish ko'lamining</p>					

kengayishi va uning nazariy asoslari.

Sinxron tarjimaning turlari. Sinxron tarjimaning hususiyatlari. Sinxron tarjima talablari. Sinxron tarjimoni baholash mezonlari.

### **3-mavzu. Sinxron tarjimonlik faoliyatining tuzilishi**

Sinxron tarjimonlik faoliyatining tuzilishi tahlilining metodologik prinsiplari. Sinxron tarjima dinamik aspektlarining tajribaviy tadqiqot metodikasi Sinxron tarjimonlarga qo'yiladigan talablar va ular ega bo'lishi kerak bo'lgan qobiliyatlari. Xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimoni tashkil etishning turlari, ularning nomlanishi va mohiyati. Bir pog'onali va ikki pog'onali tarjima sxemasining o'zaro farqlanishi.

Sinxron tarjimaning qo'llanilish sohalari. Sinxron tarjima bozori.

### **4-mavzu. Sinxron tarjimada strategiyalar xususiyatlari**

Sinxron tarjimada strategiya. Real sinxron tarjima vaziyatida turli strategiyalarning o'zaro munosabati.

Sinxron tarjimada sinab ko'rish va xatolar strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Sinxron tarjimada kutish strategiyasi xususiyatlari. Kutish strategiyasida pauzaning roli. Katta va kichik pauzalar qancha soniyani tashkil qilishi.

Stolling vaqtdan yutish strategiyasi xususiyatlari. uning afzallik va kamchiliklari.

Sinxron tarjimada chiziqlilik strategiyasi faoliyati, uning ustunliklari.

### **5-mavzu. Sinxron tarjimada ehtimolilikni bashorat qilish modelining umumiy konsepsiyasi**

Sinxron tarjimada ehtimolilikni bashorat qilish modeli. "Ehtimoliy bashorat" atamasining I.M.Feygenberg tomonidan kiritishligi va uning ta'rifi.

Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda "lingvistik" yoki "sintaktik" bashorat.

Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda "ekstralingvistik" bashorat.

### **6-mavzu. Sinxron tarjimada belgili tarjima strategiyasining umumiy konsepsiyasi**

Statik omillarga bog'liq bo'lgan sinxron tarjima strategiyalari. Sinxron tarjimada belgili tarjima strategiyasi, uni qo'llashni taqozo etuvchi vaziyatlar.

Belgili tarjimaning uslublari. Belgili tarjimaning qo'llanilish holatlari Kalkalangan belgili sinxron tarjima. So zma-so'z belgili sinxron tarjima. Tarkibis qismli tahlil asosidagi deskriptiv tarjima.

### **7-mavzu. Sinxron tarjimada kompressiya strategiyasining umumiy konsepsiyasi**

Kompressiya strategiyasining asosiy omillari, uning sabablari. Predmetli vaziyat omili. Tillarning turlicha tanlash qobiliyati omili. Xabarni yuborish tezligi borasida tadqiqotchi olimlarning nuqtai nazarlari. Sinxron

tarjimada matn taxiri.

Kompressiya strategiyasini amalga oshirish usullari: bo'g'inli. Sintaktik, leksik, semantik usullar. Kompressiyaning og'zaki tarjimada qo'llash xohlatlari.

Kompressiya strategiyasida "ekivalentlik". Matnning manbasidan reseptorga yuborilishidagi ekivalentlikning besh darajasi.

#### **8-mavzu. Sinxron tarjimada interpretasion tarjima nazariyasi**

Interpretasion tarjima nazariyasining parij maktabi tadqiqotlari. Xabar yuboruvchining kommunikativ intensivasi (maqsadi). Diskurs informatsiyasini qayta ishlash interpretatsiya modeli asoslanadigan ikki konsepsiya. ITN "fikir yurituvchi tarjimon nazariyasi.

Sinxron tarjimada tarjimonning interpretasion modeli mohiyati. Sinxron tarjimada ma'no birliklari. Tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi,

#### **9-mavzu. Sinxron tarjimada dekompressiya strategiyasining umumiy konsepsiyasi**

Dekompressiya strategiyasiga hos mental harakatlar. Tarjimonning tushunadigan leksikonida maxsus terminologiyalarni izlash. Dekompressiya strategiyasida komponentli tahlil qilish.

Dekompressiyada kompensasiya masalasi Tarjimonning intuitiv tabiati Dekompressiya strategiyasining ekivalent bo'lmagan leksikoni yuborishida qo'llanilishi.

Dekompressiya strategiyasida umumiy bilimlar, ijtimoiy-madaniy aspektlarning ahamiyati. Sinxron tarjimada sinxronist, qabul qiluvchi va yuboruvchining umumiy tajribasi.

#### **10-mavzu. Sinxron tarjimada xatolarni to'g'irlash masalalari**

Sinxron tarjimada ehtimoliy xato kichik strategiyasi va to'g'ri variant tanlovi kichik strategiyasi xususiyatlari.

Sinxron tarjimada xatolar sababining ob'yektiv va sub'yektiv xarakterlari, Xato va to'g'ri variantning foizdagi nisbati. Tarjimonning qancha tez orada xatolikka yo'l qo'yanini anglashi va qanchalik tezlikda bu xatoni tez va tarjima uchun og'riqsiz to'g'irlay olishi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi. Magistrantlarda quyidagi amaliy mashg'ulotlarni bajarish yordamida sinxron va ketma-ket tarjima faoliyati rivojlantiriladi:

- Xotira mashqlari

- Faol tinglash
- Nutq tahlili
- Taqdimot / notiqlik mahorati
- Xulosa qilish va izohlash
- Eslatmaga kirish
- Ketma-ket va sinxron tarjimonlik mashqlari
- Uskunalarni tayyorlash
- Mnemotexnika
- Apparat va dasturiy ta'minot
- Lug'at tuzish
- Stressni boshqarish

“Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sinxron tarjimonlikda “kompetensiya” va “tarjima kompetensiyalari” tushunchalari mohiyati
2. Sinxron tarjimonlik kompetensiyalariga qo'yiladigan malakaviy talablar
3. Sinxron tarjimonlik g'ayrilisoniy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metodik mashqlar
4. Mnemotexnikani rivojlantirish bo'yicha mashqlar
5. Sinxron tarjimonning diqqatni jamlash va nutq tempini nazorat qilish ko'nikmalarini o'stirishning o'ziga xosliklari
6. Sinxron tarjimonning lisoniy kompetensiyasini mustahkamlash bo'yicha metodik ko'rsatmalar
7. Leksikani faollashtirish metodikasi xususiyatlari
8. Sinxron tarjimada sintaktik ishlov berish ko'nikmasini oshirishda turli strategiyalarning qo'llanilishi
9. Sinxron tarjimonning maxsus lug'atini tuzish
10. Sinxron tarjima jarayonida stresni boshqarish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

##### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

- badiiy-ijodiy ishni bajarish;

- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**“Sinxron va ketma-ket tarjima nazariyasi va amaliyoti”** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Sinxron tarjimada tema va rema masalasi

2. Vaqt omiliga bog'liq sinxron tarjima strategiyalari

3. Sinxron tarjimadagi statik omillarga asoslangan strategiyalar

4. Sinxron tarjimada mental idrok etish modeli

5. Sinxron tarjima faoliyatida tayanch daraja, ustkategoriya va ostkategoriya so'zlar bilan ishlash

6. Sinxron tarjimonning tarjima jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan mushkul vaziyatlardan chiqish holatlari

7. Sinxron tarjimada adekvatlik va muqobillikka erishishga ta'sir etuvchi lingvistik (lisoniy) omillar

8. Sinxron tarjimada adekvatlik va muqobillikka erishishga ta'sir etuvchi ekstralingvistik (g'ayrilisoniy) omillar

9. Ekstralingvistik bashoratning mantiqiy (deduktiv) va tematik tiplari

10. Gapning semantik-ma'noviy strukturasi qabul qilinishi

11. Sinxron va ketma-ket tarjimada tema va rema masalasi

12. Vaqt omiliga bog'liq sinxron va ketma-ket tarjima strategiyalari

13. Sinxron va ketma-ket tarjimadagi statik omillarga asoslangan strategiyalar

14. Sinxron va ketma-ket tarjimada mental idrok etish modeli

15. Sinxron va ketma-ket tarjima faoliyatida tayanch daraja, ustkategoriya va ostkategoriya so'zlar bilan ishlash

16. Sinxron tarjimonning tarjima jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan mushkul vaziyatlardan chiqish holatlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– asosiy o'rganilayotgan sharq tilining fonetik tizimi va morfologik tuzilishi;</li> <li>– me'yoriy grammatik asoslari, dialektik xilma-xilligi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>– asosiy o'rganilayotgan sharq tilining yozma va og'zaki shakllari;</li> <li>– uning leksik-grammatik xususiyatlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>– gap tartibi, sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, frazeologik iboralar, sohaviy amashunoslik xususiyatlarini bilish;</li> <li>– ushbu xususiyatlarni amaliyotda qo'llash;</li> <li>– o'zbek tili va sharq tilida notiqlik mahoratiga ega bo'lish;</li> <li>– asosiy o'rganilayotgan sharq tilida chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohalarda va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hamidov X., Ismatullayeva N, Ergasheva S. Sinxron tarjima (o'quv qo'llanma). – Toshkent: ToshDShI, 2020.</li> <li>2. Hashimova S., Shamsiddinova Z. Sinxron va ketma-ket tarjima amaliyoti (xitoy tilidan o'zbek tiliga) I-jild. – Toshkent: “Yosh kuch”, 2021.</li> <li>3. 张卓. 新时代经贸汉语口语用汉语做贸易. New Era spoken Chinese for economy&amp;trade. Chinese for international trade. – 北京: 外语教学与研究出版社, 2022.4</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida</li> </ol>

demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Chernov G.V. Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti (rus tilidan X.Hamidov tarjima qilib nashrga tayyorlagan) (o'quv qo'llanma). –T.: ToshDShI, 2019.

5. 胡谷明。Pособие по переводу с китайского языка на русский. 上海。上海外语教育出版社。2020.7

6. 王.新时代经贸汉语口语用汉语来工作. New Era spoken Chinese for economy&trade. Chinese for work. –北京:外语教学与研究出版社, 2023.4

7. Albl-Mikasa, M., & Tiseliu, E. (Eds.). The Routledge handbook of conference interpreting. Routledge, 2021.

8. Gillies A. Conference interpreting. A student's practice book. – London: Routledge, 2013.

#### Scopusdan maqolalar

Wang, H., Wu, H., He, Z., Huang, L., & Church, K. W. (2022). Progress in machine translation. *Engineering*, 18, 143-153.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2095809921002745?via%3Dihub>

Pisani, E., & Fantinuoli, C. (2021). Measuring the impact of automatic speech recognition on number rendition in simultaneous interpreting. In *Empirical studies of translation and interpreting* (pp. 181-197). Routledge.

[https://claudiofantinuoli.org/docs/pisani\\_fantinuoli.pdf](https://claudiofantinuoli.org/docs/pisani_fantinuoli.pdf)

Chen, S. (2016). Note taking in consecutive interpreting: A review with special focus on Chinese and English literature. *The Journal of Specialised Translation*, 26(1), 151-171.

[https://www.researchgate.net/publication/305654592\\_Note-taking\\_in\\_consecutive\\_interpreting\\_A\\_review\\_with\\_special\\_focus\\_on\\_Chinese\\_and\\_English\\_literature](https://www.researchgate.net/publication/305654592_Note-taking_in_consecutive_interpreting_A_review_with_special_focus_on_Chinese_and_English_literature)

#### Axborot manbalari:

1. <http://www.zivo-net.uz>
2. <http://www.sciencedirect.com>
3. <http://www.bookfi.com>

6. Fanning o'quv dasturi Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabida ishlab chiqilgan va 202\_\_ yil “\_\_”\_\_dagi \_\_-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202\_\_ yil “\_\_”\_\_dagi \_\_-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

7.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b>  Ismatullayeva N.R. – TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, PhD.</p>
8.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  Mustafayeva S.T. – TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, DSc.  Ochilov E.Z. – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, f.f.n.</p>

Leaf